



HALIMA XUDOYBERDIYEVANING ASARLARIDA AYOL SADOQATI

Bekchanova Zumrad Muzaffar qizi¹, Xushanov Alisher Oydin o'g'li²

¹ Ajinyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

² Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7189043>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 12th October 2022

KEY WORDS

Halima Xudoyberdiyeva, tabiat, sadoqat, she'r, ayol, ona

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri Zulfiyaxonim izdoshi bilan Halima Xudoyberdiyeva ijodi va aynan "Behim sizni tabiat..." she'rining yaralishi hamda uning mazmun mohiyati haqida so'z yuritiladi.

Halima Xudoyberdiyevaning "Behim sizni tabiat..." va ayol sadoqati haqidagi she'rlari ta'sirida bu maqola vujudga kelmoqda. Halima Xudoyberdiyeva 1947-yil 17-mayda Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida dehqon oilasida tug'ilgan. U o'zi bergan intervyularning birida "Boyovutda o'tgan bolalik" haqida gapirib o'tgan. Shoiraning ilk she'ri 7-sinf paytida yozilgan bo'lib "Ola qashqa" nomida bo'lgan. Halima Xudoyberdiyeva avval o'rta maktabni tugatib keyin Toshkent davlat universitetida ta'lim olgan. 1975-1977-yillarda Moskvadagi Oliy adabiyot institutida tahsil olgan.

Hassos shoira Halima Xudoyberdiyevaning dastlabki she'riy majmuasi "Ilk muhabbat" talabalik chog'larida chop etilgan. Shundan keyin "Oq olmalar", "Chaman", "Sadoqat", "Muqaddas ayol", "Suyanch tog'larim", kabi asarlar va she'riy kitoblar yozgan. Bu asarlarning

ichida sevib o'qigan asarim "Muqaddas ayol" kitobi, negaki unda ayol kishining qanchalar muqaddas ekanligini anglab yetish mumkin bo'ladi. Bu asar mashhur xonandalar tomonidan qo'shiq qilib kuylangan.

Shoira she'r boshida " Behim sizni tabiat raso qilib yaratgan" degan misralar bilan boshlangan. Xo'sh nega endi raso? Raso so'zining ma'nosi nima? kabi savollar tug'ilishi mumkin. Raso so'zini har kim har xil talqin qiladi. Ushbu so'zning she'rdagi asil ma'nosi kamchiliksiz, mukammal kabi ma'noda kelganligini anglashimiz mumkin. Ayol sadoqati...Maqolaning nomi bunday bo'lishining sababi shundaki ayol kishi misli gullab turgan atirgul, hammani o'ziga jalb qiladi, agarda bee'tibor qoldirsangiz u so'nadi va tikanlari bilan jarohatlandi. Halima Xudoyberdiyeva "Behim sizni tabiat..." she'rining yaralish tarixini shunday tariflaydi. Bir-biriga o'ta ko'ngil



qo'yg'an sadoqatli er-xotin bolgan ekan. Ular ancha yillar birga baxtli yashashibdi lekin farzandlari bo'lmadi ular sabr qilishda davom etishdi baribir farzandlari bolmadi. Bir kun kelib esa xotin erining uylanmog'iga rozi bo'libdi va uyning to'grisidagi uyga ko'chib o'tibdi. Bechora ayol erining uyga bormaslik uchun u uy bilan bu uy oralig'iga, butun hovliga qoqib chiqdi, zora oyog'iga mix kirib qiynalib, hovlida yurolmasa... Zora bu fojiali tunni yostiqni tishlab bo'lsada, o'z uyida o'tkazolsa...

Afsuski bunday bo'lmabdi. Tongda uyg'onib hovliga chiqqanlar o'z uyida behush yotgan ayolni va ayol oyog'idan oqqan qondan qip-qizil lolazorga aylangan hovli yuzini ko'ribdilar... Bu she'rda yuqoridagi fikrlarga nomutanosib bo'lgan holat keltirilgan ya'ni ayol o'zining sadoqati tufayli o'z-o'zini jarohatlandi va lolazorga aylangan holda bu dunyoni tark etgan.

Ko'ryapsizki bu birgina she'rda ayolning qanchalar matonatli ekanligi ta'riflab berilgan. Halima Xudoyberdiyeva

ijodini o'rganganimizda " Ayol, Ona " obrazlarini takror va takror uchratish mumkin. Xususan shoiraning "Dorilamon kunlar keldi" she'rida onasini tilga olish bilan birga ayol obrazini ham tasvirlagan. She'rning asosiy mavzusi shukronalik! Ushbu she'rda shoira yashamoqni - bir tansiq taomlar o'xshatgan bo'lsa "Shunchaki" she'rida "shunchaki yozmoqlikni shoira o'lim" deya mohirona tasvirlab bergan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Halima Xudoyberdiyevaning she'rlarini o'qigan inson o'ziga qandaydir foydali ma'lumot olmasdan qolmaydi, ayniqsa, "Begim sizni tabiat..." she'rida butun bir ayolning sadoqatidan parchagina keltirilgan xolos...Shoiramizning har bir she'rida, har bir so'zida olam-olam ma'no bor desak mubolag'a bo'lmaydi. O'zbek adabiyotida shoir-u shoirlar ko'p. Xususan Abdulla Qahhor aytganidek "Adabiyot atomdan kuchli uni o'tin yorishga sarflamaslik kerak"

References:

- 1.Qo'ziboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshev. "9-sinf adabiyot darsligi" Toshkent 2019
- 2."Gulxan" jurnali 3-son 2019